Key words: Confucius, Confucianism, "Li", "Jen", "Ti", "Ki", order, morality, ritual, humanism.

Аннотация: Культурные традиции Дальнего Востока формируют собственную философию, не уступающую уровню логико-дискурсивной концептуальности и проблемности западноевропейской философии. Одной из важнейших составляющих дальневосточных традиций является философское мышление. Одной из таких философских идей является конфуцианство, и мы видим его распространение в Южной Корее и его влияние на социальную и политическую жизнь страны. В современных тенденциях экономического развития роль конфуцианства в цивилизационном подъеме Южной Кореи огромна. Чтобы понять конфуцианство в современной Южной Корее, конечно, чрезвычайно важно изучить древнекитайский культурный мир и, в связи с ним, исторические корни конфуцианства. Тот факт, что мы все еще можем пользоваться передовыми философскими, этическими, научными и социальными идеями конфуцианства в Южной Корее, является основой актуальности темы.

Ключевые слова: Конфуций, конфуцианство, "Ли", "Жэнь", "Ти", "Ки", порядок, мораль, ритуал, гуманизм.

KIRISH

Konfutsiychilik madaniyati doimo Xitoy va boshqa ko'plab qo'shni mamlakatlar madaniyatining eng ulug'vor tarkibiy qismi bo'lib xizmat qilib kelgan. Ikki ming yildan ortiq vaqt davomida ko'plab Uzoq Sharq asosiy dunyosini boshqarib, u yerdagi mamlakatlar xalqining fikrlash tarzi va madaniy-psixologik shakllanishiga chuqur va uzoq muddatli ta'sir ko'rsatdi. Konfutsiychilik ta'limi, avvalo, inson o'z-o'zini anglashdan boshlanadi, chunki ta'limot insonga bog'liq va insonga yaqin bo'lgan ixtilof va tuyg'ularni aks ettiradi deb qaraladi. Qolaversa, "Inson tabiati Osmon in'om etgan ne'matdir" kabi asosiy iboralar taniqli konfutsiychilik olim-pedagoglari tomonidan tez-tez keltiriladi.



ADABIYOTLAR SHARHI

Rus olimlaridan A. L. Titov (Titov, 2015: 38-55), A. E. Lukyanov (Lukyanov, 1992: 188), A. V. Torkumova (Torkumova, 2003: 430), A. F. Trotsevich (Trotsevich, 2004: 323), S. O. Kurbanov (Kurbanov, 2009: 744) va boshqa shu kabi olimlar mazkur mavzuning gumanistik jihatlarini o'rganganlar bo'lishsa, M. L. Titarenko (Titarenko, 1993: 566), A. I. Kobzev (Kobzev, 1993: 788), G. V. Grinenko (Grinenko, 2009: 685), V. L. Vasilyev (Vasilev, 2006: 384-492), G. F. Aleksandrov (Aleksandrov, 1959: 371) va boshqalar Koreya konfutsiychilikning Xitoydan Koreya hududiga kirib kelishi va uning tarqalishi, Koreya hududidagi konfutsiychilik talimoti, Janubiy Koreya va Xitoy an'alarida konfutsiychilikning mohiyati, falsafasining tarixiy jihatlarini, hozirgi globallashuv davridagi o'rning asosiy masalalari haqida fikr yuritishadi.

METODOLOGIYA

Maqolada tarixiylik, mantiqiylik, obyektivlik, ilmiylik, xolislik, falsafiy ma'lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, falsafiy qiyosiy tahlil, hermenevtik usullardan foydalanilgan.

NATIJADAR

Qadimgi odamlar ulkan olamni kuzatdilar va unda mutlaq tartib mavjud degan xulosaga keldilar. Agar aniqlaganlari to'g'ri bo'lmasa, yulduzlar bu koinotdagi boshqa yulduzlar bilan to'qnashishar va haddan tashqari tartibsizliklar sodir etgan bo'lishar edi. Ammo koinot to'g'ri va tartibli ishlaydi. Shuning natijasida ular, agar bu mutlaq tartib yerga tushsa, balki tartibni yo'qqa chiqaruvchi urush tugashi mumkin deb o'yladilar. Agar odamlar o'zaro muloqot qilishda boshqalarni ham hisobga olsalar, insoniy munosabatlar qarshilik, tortishuvlar va nizolar, nafrat va yomon niyatlarsiz shakllanadi. Aynan mana shu "odob-axloq" tushunchasi koinotdagi tartib-intizomning manbayi ekanligini qadimgi odamlar ochib bergan. Va biz yashayotgan jamiyatning to'g'ri tartib bilan ishlashi uchun eng muhimi - bu odob-axloq deb hisoblaganlar. Ular jamiyatning "odob-axloq" asosida shakllanishini xohladilar.

Konfutsiy o'z ta'limotida "odob-axloq" tushunchasini ochiqlash bilan birga, uni jamiyatda tinch hayot ta'minlanishini harakatlantiruvchi kuch sifatida ko'rsatishga harakat qildi. Boshqa axloqiy tamoyillar bilan taqqoslaganda, "Jen" va "Li" uzoqroq tarixga egadir va konfutsiy madaniyatining rivojlanishi davomida ta'limot markazi sifatida doimo talqin qilib kelingan. Bu ikki asosiy kategoriyalar bo'yicha olib borilgan barcha oldingi tadqiqotlar ularning ma'nolari, o'zaro munosabatlari, ijtimoiy funktsiyalari va ularning ahamiyatini taqqoslash usullarini qo'llaydi. "Jen" konfutsiychilikning mafkuraviy yadrosi bo'lib, mafkura va axloqiy tushunchalarni ifodalaydi, "Li" esa "Jen"ning tashqi ko'rinishi bo'lib, insonning xulq-atvor normalari anglatadi. Bu ikki kategoriya qush ikki qanotining tomonlari kabi bir-birini to'ldiruvchi xususiyat va munosabatlarga ega.

"Li" va "Jen" tushunchalari konfutsiychilik asosiy qadriyatlarining muhim qismlaridir, shuning uchun ular o'rtasidagi farqlarni va ularning evolyutsiyasini o'rganish va shu bilan bir qatorda bevosita bu ikki kategoriyalarni falsafiy tahlil qilish konfutsiychilik madaniyatini yanada chuqurroq tushunishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda, "Li" va "Jen" tushunchalari mukammal va murakkab ma'nolarga va qolaversa, o'zaro uzviy munosabatlarga ega hamdir. "Li" tushunchasi birinchi navbatda konfutsiychilik etikasining asosi hisoblanadi, qolaversa, klassik Xitoy falsafasining ham markaziy kategoriyalaridan biri sifatida talqin etiladi. Xitoy lug'atidagi boshqa ko'plab atamalar singari, "Li" ham bir-biriga bog'liq ma'nolar turkumini o'z ichiga oladi, bu esa boshqa tillarda bitta so'z bilan ifoda berishni qiyinlashtiradi. Tushuncha ikkita asosiy, "axloq" va "marosim" ma'nolarini anglatgan holda, ularni o'zida birlashtirgan. Etimologik jihatdan, "Li" ieroglifining yozuv ko'rinishi uni "Ti" ontologik tushunchasi ("tana", "tuzilma", "mohiyat") bilan bog'laydi, shu o'rinda ikkala ieroglifning grafik asosi marosimlarning tasvirini aks ettiradi degan xulosaga kelsak bo'ladi. Ko'rinishidan, bu ikki ieroglifning etimologik munosabati, "Li" tushunchasining ontologik funksiyasini oldindan belgilab qo'ygan bo'lib va katta ehtimol bilan shu tufayli, nafaqat madaniy hayotda, balki jamiyatdagi eng muhim omilning ifodasi sifatida ham qarala boshlagan. Miloddan avvalgi 1-mingyillikgacha "Li" ta'siri diniy marosimga asoslangan bo'lsa, keyinchalik asosan axloqiy talqinni oladi (Сыма Сян, 1986: 352). Eng qadimiy yozma yodgorliklarda ("Shu jing" va "Shi jing") "Li" kategoriyasi siyosiy ziddiyatlarni yengib o'tishga imkon beradigan va shu bilan bir qatorda, dunyo birligini aks ettiruvchi marosimlarni, obro'li shaxslarning boshqa quyi jamiyat vakillariga nisbatan xatti-harakatlari, shuningdek, ma'budlarga bag'ishlangan va saroy marosim shakllari ma'nosini bildiradi deb ko'rsatib o'tilgan (Drevnekitayskaya filosofiya, 1972: 79).

Barcha holatlarda "Li" atamasi inson faoliyati, ajdodlarga ruhiga xurmat ko'rsatishdan tortib dasturxon odobigacha, va ularni rag'batlantiradigan va mustahkamlaydigan odob-axloq munosabatlarini anglatadi - sodda qilib aytganda, "Li" inson harakatlarini cheklaydigan va ularni boshqaradigan xatti-harakatlar standartiga ishora qiladi. Konfutsiychilikning umumiy nuqtayi nazari shundan iboratki, "Li" kategoriyasi insonlar munosabatlarini rivojlantirish, jamiyatda tinchlik, totuvlik va to'g'ri boshqaruvga yordam beradi. Klassik Xitoy dini va falsafasida keng



tarqalgan ijtimoiy tartib va axloqiy xulq-atvor bilan bog'liq umumiy muammoni hisobga olsak, bu tushuncha qanday qilib ilk konfutsiychilar uchun to'liq markaziy tushunchaga aylanganini ko'rish oson bo'ladi. Biroq klassik konfutsiychilik faylasuflarining har biri bu tushunchaga har xil yondashuvda bo'lgan, shu sabab unga nisbatan qator munosabatlarni navbatma-navbat ko'rib chiqishni talab qiladi.

Konfutsiy ustoz (keyinchalik diniy va axloqiy faylasuf) sifatida axloq va ijtimoiy uyg'unlikni targ'ib qilishda "Li" o'rni zarurligini tushundi. Vaziyatdan qat'i nazar, "Li", inson xulq-atvorining ichki yo'l-yo'riqlari ma'nosida, qolaversa, o'z xatti-harakatlarini tartibga solish va uni shaxsiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan to'g'ri yo'lga yo'naltirish ma'nolarida tushunilgan. Yan Xui: "Obro'ga (Jenga) ega bo'lish nimani anglatishini so'rasam bo'ladingmi?" Ustoz javob berdi: "Marosim qoidalariga rioya qilishdan chalg'itadigan hech narsaga qaramang (Li); marosim odobini buzadigan hech narsaga quloq solmang; marosim odobini buzadigan hech narsa haqida gapirmang va qilmang (The Analects of Confucius, 2007: 13). Bu nuqtayi nazar Konfutsiyning Xitoy chekka hududlaridagi "madaniyatsiz" odamlar orasida yashash istagi haqidagi ertak bilan ta'kidlanadi:

Konfutsiy ular orasida yashash istagini bildiradi va unga: "Ularning qo'polligini nima qilasiz?" deb savol berishadi, shunda u: "Ular orasida ibratli inson yashasa, yana qanday qo'pollik bo'lishi mumkin?" deb javob qaytargan. Bunday g'oyalar Konfutsiyning to'g'ri boshqaruv g'oyasida ham markaziy o'rin tutdi, bu esa "Li" asosini majburlash qonunlari va jazolar tushunchasiga to'siq sifatida o'rnatdi: "Odamlarni a'lo darajada boshqaring va marosimlar to'g'riligiga rioya qilish orqali tartibni saqlang va ularda uyat hissi paydo bo'ladi va bundan tashqari, ular o'zlarini tartibga soladilar" (The Analects of Confucius, 2007: 94). Ushbu tushunchasining "axloq" va "marosim" sifatidagi talqin etilishi va ma'naviy jihatdan yakdil bir to'xtamning noaniqligi Konfutsiyning yirik ikkita izdoshi va konfutsiychilikdagi qarama-qarshi oqimlarning asoschilari hisoblanadigan Men szi va Syun sziga "Li" tushunchasini turli yo'llar bilan izohlash imkonini berdi (Cua, 1983: 7).

Men szi "Li" ga boshqacharoq yondashuv beradi. U Konfutsiy aytganidek, ushbu tushunchani o'rganish mumkin bo'lgan odob-axloq modeli sifatida emas, balki ichki yaxshi xulq-atvor tuyg'usini anglatuvchi atama sifatida ta'rifladi. Adolat, yaxshilik, odob va donolik kabi fazilatlar insonga tabiatan mos deb biladi va shu sababli, inson tabiati yaxshi ekanligi haqidagi ta'limotida "Li" ni markaziy o'ringa qo'ygan: "Insonlar aslida qanday bo'lsa, ular yaxshi inson bo'lishi mumkin. Ularning tabiatida mehr-shafqat, boshqalarga hurmat, ularni ma'qullash kabi xususiyatlar tabiatan bor. Aksincha, insonlarning yaxshi emasligiga kelsak, bu ularning salohiyatida ayb degani emas. Bu shunchaki, ular o'zlaridagi ezgu qalbga e'tibor qaratmaydilar. Izlang va siz unga erishasiz". Shunday qilib, Konfutsiy va Men szi nuqtayi nazarlari o'rtasida sezilarli o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Konfutsiy uyg'un xulq-atvorni targ'ib qilishda "Li" zarurligini ta'kidlagan bo'lsa-da, Men szi inson tabiatiga ko'proq ishonadi (Schwartz, 1985: 194).

Men szidan farqli o'laroq, Syun Szi inson tabiatan yovuz ekanligiga ishondi - bu uning yoshiga xos bo'lgan tartibsizlik va noaniqlikdadir deb hisoblaydi. Shunday qilib, Konfutsiyga ergashib, u inson xatti-harakatlarini tartibga solish va uyg'un jamiyat qurish uchun "Li" zarurligini ta'kidladi: "Demak, inson o'zining tabiati orqasidan ergashib, undagi his-tuyg'ulariga berilsa, muqarrar ravishda janjal va nizolarga aralashadi, jamiyatning shakl va qoidalarini buzadi va jinoyatchiga aylanadi. Binobarin, inson avvalo, ustoz ko'rsatmalari bilan o'zgarib, marosim tamoyillariga (Li) amal qilishi kerak, shundagina u odob va kamtarlikka amal qila oladi, jamiyatning qoidalariga bo'ysunadi, tartib-intizomga erishadi" (Xunzi, 2003, 114). Shu bilan birga, u o'z qarashlari ustozini hisoblanmish Konfutsiyning formulasini kengaytirib, ushbu xulq-atvor meyorlari odamlarning istaklari va his-tuyg'ularini boshqarish va tartibga solish usullarini aniq o'rganib chiqdi. Shuningdek, ushbu standartlar qadimgi hukmdorlar tomonidan aniq ijtimoiy nazoratni amalga oshirish uchun o'rnatilganini aytib o'tadi:

"Inson istaklar bilan tug'iladi. Agar uning xohish-istaklari uning uchun qanoatlantirilmasa, agar uning izlanishlarida chegara va darajalar bo'lmasa, u muqarrar ravishda boshqa odamlar bilan janjallashib qoladi. Jangdan tartibsizlik kelib chiqadi. Qadimgi hukmdorlar bunday tartibsizlikni yomon ko'rishgan va shuning uchun ular uni jilovlash, odamlarning xohish-istaklarini ta'minlash uchun marosim tamoyillarini o'rnatdilar". Shunday qilib, Syun Szi tizimi konfutsiylikning "Li" kontseptsiyasini umumlashtiradi, lekin bu ishni u ochiqdan-ochiq pessimistik yo'l bilan va shu bilan bir qatorda biroz avtoritar kontekstda amalga oshirgani rad etib bo'lmas haqiqatdir. Bundan tashqari, Syun Szi inson his-tuyg'ularini tartibga solishdagi funktsiyasini maqsadli o'rganish orqali "Li" roli haqidagi tushunchani kengaytiradi berdi (Cua, 1983: 14).

Koreys konfutsiychilik olimlari "inson tabiati"ni tabiatan yaxshi narsa deb hisoblagan holda shakllangan. Ular Men Szi ta'lim an'analarga qo'shilishgan holda, bunda ta'lim insonning fazilatli tabiatini takomillashtirish va targ'ib qilish vositasidir deb hisoblashadi. Axloqiy tarbiyaning nozik tabiati koreys konfutsiychiligining yana bir muhim xususiyati bo'lib, hatto tarixda o'tgan Koreya qirollari ham aynan konfutsiychilikning konformistik axloqi bo'yicha ta'limot olimlaridan ma'ruzalar bilan rasmiy konfutsiychilik ta'limini olishgan. Shu jihatdan kelib chiqsak, Men Szining g'oyalari, ayniqsa, Choson davridagi koreys falsafasini metafizik rag'batlantirish va qayta kalibrlashiga mas'ul bo'lib, oxir-oqibat uning falsafiy munozaralariga olib keldi, deb aytish bejiz emas (Sohn, 2000: 193).



Konfutsiychilikda jamiyat “Li” tamoyili asosida quriladi. Ijtimoiy odob-axloq qoidalari oiladagi, do‘stlikdagi, suveren va subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni va boshqalarni tartibga soladi. “Li” ajdodlardan avlodlarga o‘tib keladigan urf-odatlar va munosabatlar majmuyi hamdir. Xususan, otalar, qishloq oqsoqollari va Hukumat amaldorlari tomonidan boshqalarga o‘rgatiladigan to‘g‘ri ijtimoiy xulq-atvor normalaridan iborat. “Li” tushunchasi farzandlarga taqvo, birodarlik, solih amallar, yaxshi xulq-atvor va sadoqat kabi ezgu g‘oyalarni targ‘ib qilgan. Qolaversa, uning bevosita ta’siri insonning o‘zidan yuqori mansab vakillariga sodiqlik va jamiyatda muhim o‘rin egallovchi shaxslarga hurmatda bo‘lish kabi odob-axloq normalarini singdirgan.

XV-XVI asrlarga qadar Koreyadagi neo-konfutsiychilik ko‘p hollarda ekologiyaga asoslanib kelgan bo‘lsa, Choson qirolligining o‘rtalaridan boshlab moddiy asoslarga tayanuvchi maktablar tashkil etildi. Bu moddiy asoslar “Li” va “Ki” kategoriyalarining qarama-qarshiligi asosida tashkil etilgan bo‘lib, bu yerda “Ki” deganda aql bilan bog‘liq moddiy narsalar nazarda tutilsa, “Li” da esa ruh bilan bog‘liq holatlarni tushunilishini ko‘rishimiz mumkin. Konfutsiychilik Xitoydan Koreya hududiga kirib kelgan uzoq asrlardan beri ushbu ta’limot olimlari “Li” kategoriyasini faqatgina “prinsip” yoki “uyg‘unlik” sifatida tushunish davom etib kelishgan bo‘lsa, neo-konfutsiychilikning yoyilishi bilan, uni o‘ziga xos xususiyat belgilaydigan falsafiy atama sifatida tavsiflaydilar. Ilk konfutsiychi olimlar o‘zlarining falsafiy asarlarida kamdan-kam hollarda “Li” ni qo‘llashgan, hatto ular kategoriyani qo‘llashganda ham, u asosan Syun Szi axloqiy tafakkurida namoyon bo‘lganidek, “yaxshi tartib” ga ishora qildi.

Shunday qilib, “shakl” ma’nosi atamaning qadimiy ma’nosiga yaqin bo‘lsa-da, “tamoyil” falsafiy tadqiqotlarda kengroq qo‘llaniladi, chunki bu kabi talqin etilishi “Li” ning o‘ziga xos xususiyatini yaxshiroq yoritadi, deb ishoniladi. Chju Si uning kosmologik, metafizik va axloqiy-siyosiy o‘lchamlarini va ularning murakkab o‘zaro bog‘liqligini ifoda etganidan so‘ng, “Li” qayta kashf etdi deyishimiz mumkin. Neokonfutsiychilikning eng rivojlangan davri aynan XVI asr bo‘lib, uning Koreya hududida keng tarqalishi va yanada rivojlanib taraqqiy etishi bugungi kunda ham mamlakatda cheksiz hurmatga sazovor bo‘lgan faylasufi Li I (Yulgok) ning nomi bilan bog‘liq. U Chugipxa deb nomlangan maktabning asoschisi bo‘lib, ushbu maktab vakillari uning falsafiy qarashlarini davom ettirishgan. Li I koreys falsafasining tayanch tushunchalarini dualistik ravishda talqin qilishdan kelib chiqadi va shu asosda “Li” va “Ki” bir-birlaridan ajratilishi mumkin emas degan g‘oyani ilgari suradi. “Ular o‘rtasida oraliq yo‘q”, deb ta’kidlab o‘tadi (Chon Chin Sok, 1966: 181). Yulgok “boshlanish ham Li, ham Ki” da degan nazariyani ilgari suradi. Yulgokning dualistik pozitsiyasini quyidagi fragment orqali baholash mumkin: “Agar Li bo‘lmaganida, Kiga nima asos bo‘lar edi? Shunda asoslar ham mavjud bo‘lmagan bo‘lar edi. Ya’ni birinchisi yo‘q ekan, ikkinchisi ham mavjud emas. “Li” va “Ki” ni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, lekin mo‘jizaviy tarzda birlasha oladi degan g‘oya mavjud. Li I “Osmon va yer orasidagi hamma narsa Kidir” deb yozadi. Shu fikrlari asosida “Li” bilan bog‘liq jarayonlar boqiy, “Ki” esa o‘tkinchi degan xulosaga keladi. “Li” tug‘ma ezgulikka ergashib, odamlar va narsalarning tabiatini shakllantiradi, hamma narsada mavjud bo‘ladi. Yulgok odamning tug‘ilishi va o‘limida “Ki” ning paydo bo‘lishi va yo‘qolishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘tkinchi xarakterini kashf etadi, “Li” esa hayot va o‘limdan mustaqil narsa sifatida mavjuddir deb aytgan. Oxir-oqibat, Li I dualizmi “Li” ning yetakchi rolini tan olishga olib keldi. Uni narsalar doirasida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Ki – moddiy passiv material, Li esa faol printsip, o‘zgarishlarning sababi, boshqaruvchi kuchdir.

Urf-odatlariga sodiqlik, ularga rioya qilish, masalan, ota-onaga hurmat shular jumlasidandir. Umumiy ma’noda, “Li” jamiyat asoslarini saqlashga qaratilgan har qanday faoliyatni o‘z ichiga oladi. Konfutsiyning fikricha, umuman olganda, bizning har qanday xatti-harakatlarimiz, xoh u ovqat yeyish, xoh salomlashish, hammasi shunchaki emas, balki marosim shaklida bo‘lishi kerak, ya’ni ongli ravishda, asta-sekin, hissiyot bilan bajarilishi kerakligi aytiladi. Insonlar o‘zlarining harakatlarida ham, birodarlariga ko‘rsatilgan to‘g‘ri o‘rnak va yordamda ham a’nanalarga fidoyilik amaliyotini saqlab turishlari kerak. Shaxsiy yondashuvlar, shuningdek, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro yondashuvlar birgalikda “Li” kategoriyasining qanday qilib har bir narsani, yaxshi va yomon, shaklga ega va shaklsizni keng masshatbda va batafsil ko‘rinishda qamrab olganligini ko‘rsatadi. Aynan shu “Li” ning jamiyatda to‘liq amalga oshirishidir deb qarash bo‘ladi.

Konfutsiylik etikasining asosiy tamoyili jamiyat va oiladagi odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning oliy qonuni sifatida qaraladigan “Jen” (insoniyat) tushunchasidir. Shu o‘rinda, Konfutsiy axloqning oltin qoidasini shakllantirdi: “O‘zing uchun ravo ko‘rmagan narsalarni o‘zgalar uchun ham ravo ko‘rma”. Kundalik hayotning turli jabhalarini marosim tarzida o‘tkazishning ushbu tamoyili odamlarga hayotni, uning ruhini yaxshiroq his qilishlariga imkon berish uchun mo‘ljallangan deb qaraladi. Albatta, har qanday marosim hurmat (inson o‘ziga, boshqa odamlarga va tabiatga) va qadr-qimmat bilan to‘ldirilishi kerak. Li tushunchasining marosim meyorlari, qadriyatlarga asoslangan xatti-harakat namunalari odamlarni birlashtiradi va bir vaqtning o‘zida qulay muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan makonga imkon beradi va ijtimoiy mavqeyi bo‘yicha teng bo‘lmagan odamlar o‘rtasidagi muloqotda tenglik tamoyilini amalga oshiradi. Konfutsiyning fikricha, inson qadr-qimmatga ega noyob mavjudotdir. Inson qadr-qimmatini “Li” dan kelib chiqadi va unda gavdalanadi. O‘zlashtirilgan odat, marosim insonni hayvondan ajratib turadi.

Ushbu kategoriya miloddan avvalgi V-III asrlarda konfutsiylikning eng muhim belgilaridan biriga aylangan. Ayni o‘sha davrlarda “Li” tushunchasi konfutsiylik bilan raqobatlashuvchi falsafiy maktablarning konfutsiylikga



qarshi hujumlarining asosiy nishoniga aylandi. Daosizm tarafdorlari tabiatga sodiqlik nuqtayi nazaridan konfutsiylkdagi "odob-axloq" ning sun'iyli va samarasizligini, shu bilan bir qatorda ishonchning zaiflashuv omili sifatida ta'kidladilar. Moizm ta'limoti qo'llab-quvvatlovchilari esa ijtimoiy-iqtisodiy utilitarizm nuqtayi nazaridan konfutsiychilarning "Li" tushunchasining marosimlar tomoniga haddan tashqari qiziqishini, uning o'ta murakkab bo'lgan shakllari va asossiz qimmat tantanalarini tanqid qildilar. Legizm tarafdorlari, "Li" tushunchasini ijtimoiy tartibga solishning oliy printsiplari sifatini rad etib, uning o'rniga ma'muriy tamoyillar va huquqiy qonunlarni muqobil variant sifatida ilgari surdilar (Etika i ritual v traditsionnom Kitae, 1988: 118).

"Li" ning marosimlari va amaliyotlari tabiatdan dinamikdir. "Li" amaliyotlari jamiyatda paydo bo'lgan qarashlar va e'tiqodlarni aks ettirish uchun vaqt o'tishi bilan qayta ko'rib chiqiladi va baholanadi. Garchi bu vaqt o'tishi bilan juda sekin sodir bo'ladigan o'zgarish bo'lsa-da, inson odob-axloqining asosiy kamolot nuqtalari asosan ijtimoiy tartib bilan bog'liq bo'lgan "Li" ning o'zagida qoladi.

Konfutsiy "Li" tushunchasini nazariy jihatdan anglagan holda, uni o'zi va boshqalar uchun to'g'ri ijtimoiy tuzilma va inson xatti-harakatlarining eng umumiy xususiyatiga aylantirdi: "Hukmdor o'z fuqarolarini "Li" orqali boshqarishi kerak" deb ta'kidlab o'tadi va fikri davomida "Inson shuningdek, o'z-o'zini yengib, "Li"ga murojaat qilishi, yana bir muhim tuyg'u insoniylikni (Jen) tashkil etadi" deb qo'shimcha qiladi. Hukmronlik nazoratining hissiy soha bilan kengayishi konfutsiylkdagi ushbu tushunchaga umumiy gnoseologik standart maqomini berish uchun asos bo'ldi: Shu o'rinda Lun Yuyda "Insoniylik va madaniyat bo'yicha bilimlarni kengaytirish va uni "Li" yordamida mustahkamlash orqali siz qonunbuzarliklarga uchramasligingiz mumkin" deb keltiriladi.

Konfutsiy Hukumat to'g'ri bo'lishi uchun "Li" tamoyillariga amal qilish kerakligini nazarda tutgan. Ba'zi konfutsiychilar bu jarayonning muhim qismi sifatida "Li" tushunchasini o'rganish orqali insonning mukammallikka erishishini taklif qilishdi. Umuman olganda, konfutsiychilar Hukumat vakillari "Li" normalariga ko'proq e'tibor qaratishlari va hukmronlik pozitsiyasida insonlarga jazo berishga kamroq tayanishlari kerak deb hisoblashgan. Konfutsiy marosimlarni to'g'ri ishlaydigan hukumatning asosi sifatida muhimligini ta'kidladi. Konfutsiy o'z hikmatlarida qadimiy urf-odatlarini qabul qilgan feodallarni markaziy hududlarning adolatli hukmdorlari deb hisoblagan. Aksincha, bu urf-odatlarini qabul qilmagan feodallar madaniyatsiz hisoblanar, xitoylik yoki markaziy hududlarning bir qismi hisoblanishga loyiq emas edi. "Li" jamiyatning barcha jamiyat a'zolari tomonidan rioya etilishi kerak bo'lgan axloq normalari edi. Li, shuningdek, yuqori tabaqa vakillarining o'zlaridan quyidagilarga nisbatan adolat va hurmat bilan munosabatda bo'lishi lozimligini o'z ichiga oladi. Konfutsiy aytganidek, "Hukmdor o'z vazirlari bilan odob-axloq qoidalariga ko'ra ishga olishi kerak va vazirlar ham o'z hukmdorlariga sodiqlik bilan xizmat qilishlari kerakdir" (The Analects of Confucius, 2007: 139).

Insonparvarlik (Gumanizm) - Konfutsiy ta'limotining markaziy kategoriyasilaridan hisoblanadi. Bu kategoriya konfutsiychilikda "Jen" deb yuritiladi va odatda "insonparvarlik", "rahm-shafqat", "xayriya" deb tarjima qilinadi, shunga ko'ra ko'plab adabiyotlarda umumiy ma'noda "gumanizm" tushunchasiga sinonim sinonim sifatida qo'llanadi. Bundan kelib chiqadiki, Jen shaxsning o'ziga xos belgilarini va uning o'z umrini qay tartibda yashab o'tishi kerakligini anglatadi. Bu jamiyat a'zolaridagi insoniylik tamoyilidir va ushbu normalarga rioya qilish ularning burchidir (Kitayskaya filosofiya, 1994: 213).

Qadimgi konfutsiychilik manbalarida keltirilishicha, bir vaqtning o'zida insonning axloqi qanday degan savolga javob bermay turib, qanday inson ekanligini aytish mumkin bo'lmagan. Boshqacha qilib aytganda, inson o'zini o'zi shakllantirgan va jamiyatda o'z axloqiga ko'ra sifatlangan, shunga ko'ra baholangan. Konfutsiyning o'zi insonparvarlik ya'ni "Jen" nima degan savolga: "Bu tushuncha odamlarni sevishni anglatadi. O'zing uchun xohlamagan narsalarni boshqa odamlarga ham qilmang. Shunda oila va davlatda nafrat yo'qoladi", deb javob beradi. Jen - Xitoy falsafasi va an'anaviy, ma'naviy madaniyatining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Konfutsiychilik tarafdorlari Jenning bir nechta asosiy semantik taraflarini o'zida mujassam etgan jihatlarini ajratib ko'rsatishadi:

- 1) axloqiy va psixologik – axloqiy tamoyillar to'plami, shuningdek, odamlarga bo'lgan sevgi yoki achinish, burch, adolat, odob, aql, jasorat kabi jihatlarini o'zida aks ettirish;
- 2) axloqiy-metafizik – ma'naviy jihatdan bog'liq, individning mavjud hamma narsaga, shu jumladan jonsiz narsalarga simpatik-integrativ munosabatda bo'lishi kabi holatda o'z aksini topadi;
- 3) ijtimoiy – jamiyatdagi munosabatlar normalari majmuyi;
- 4) siyosiy – davlatdagi xatti-harakatlarni tartibga soluvchi munosabatlar qoidalari (Duxovnaya kultura Kitaya, 2007: 13).

"Jen" ieroglifi mos ravishda shaxsni va ikki raqamini bildiruvchi belgidan iborat. "Jen" insonning boshqa odamlar bilan munosabatlarida amalga oshiriladi. Aynan jamiyatdagi o'zaro iliq munosabatlar kabi nisbatlar inson mavjudligining haqiqiy makonini tashkil qiladi. Konfutsiyning fikricha, antik davr, ya'ni ota-bobolar xulq-atvor namunasidir va normani ular belgilaydi. Insonning axloqiy sa'y-harakatlari ideal o'tmish darajasiga



ko'tarilishi kerak. Bunday munosabat insonning tarix bilan yashashini anglatmaydi, aksincha bu konfutsiylikda yanada aniq va qat'iy shaklga egadir: "Ota-onani hurmat qilish va katta aka-ukalarni hurmat qilish insonparvarlikning asosidir". Bu tushunchaga umuminsoniy fazilat ma'nosini bergan Konfutsiy uni "odamlarga bo'lgan muhabbat" deb talqin qilgan. Biroq o'zaro insonparvarlik odamlar o'rtasidagi tenglikni emas, balki adolatli ierarxiyani nazarda tutadi. Unda ko'tarilish mezoni bilimdir (Konfutsiy qonunlari, qadimiy matnlar). Konfutsiylik ideali - ijtimoiy qoidalar va marosimlarga rioya qilish haqida g'amxo'rlik qiluvchi "olijanob inson"; u faqat shaxsiy manfaatni o'ylaydigan "pastkash odam" ga qarshi turadi. Olijanob insonlar xalqqa ma'naviy o'rnak bo'lmog'i lozim, bu esa huquqiy majburlashdan ko'ra samaraliroq bo'lib, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy hayotning qadriyatlar nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, konfutsiychilik tomonidan targ'ib qilinadigan fazilatlar qatorida shuni aytishimiz mumkinki, "Jen" kategoriyasida Xitoy konfutsiychiligi mukammal shaxslarning xulq-atvorini ifodalasa, koreys konfutsiylikida esa komil inson g'oyasidan tashqari, ta'kidlangan muvofiqlikga ham urg'u beradi. Shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, "Jen" kategoriyasi Xitoy konfutsiychiligida o'zini boshqa insonning o'rniga qo'yish tushunchasini ifodalagan bo'lsa, koreys konfutsiychiligida esa o'rinishlik va mo'tadillik hislatlarini ham ko'rsatadi. Turli mamlakatlardagi urg'udagi bu farqlar nafaqat aksiologik, balki madaniy sababdandir ham. Sharqiy Osiyo madaniy qiyosiy tadqiqotlarida biz chiqarishimiz mumkin bo'lgan xulosalar nafaqat adabiyot va falsafa darajasida, balki sotsiologiya va antropologiya sohasidagi tadqiqotlarda ham paydo bo'ladi.

Jen kategoriyasidagi insonparvarlik jihati koreys konfutsiychiligida ham qadimgi Xitoy konfutsiychiligi kabi madaniy ideallarining o'zagida yotadi. Bunga misol o'laroq, xalqni himoya qilish haqidagi g'oyani keltirish mumkin. "Ular bilan (xalq bilan) go'daklaringizni himoya qilayotgandek muomala qiling, shunda odamlar tinch va sog'lom bo'ladi". Bu nafaqat siyosiy g'oya, balki axloqiy va aksiologik ahamiyatga ham ega edi. "Jen" kategoriyasi orqali insonparvarlik g'oyasida keksalar, zaiflar, yetimlar va yoshlarni himoya qilishga alohida ahamiyat beriladi (Roger, 2017: 225).

Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, Syun Szi o'z risolasida konfutsiylik uchun asos bo'lgan boshqa ko'plab tushunchalarga qaraganda "insonparvarlik" tushunchasi ko'proq e'tibor qaratadi. Risolani tahlil qilish barobarida, birinchidan, "Jen" ga bo'lgan munosabat, bu shunchaki jamiyatdagilarga eslatma emasligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, qoida tariqasida, Jen haqida gapirganda, muallif, albatta, u bilan bog'liq bo'lgan bir qator boshqa kategoriyalar haqida ham, ushbu kategoriyalarning ta'siri, aloqa nuqtalari va kesishish joylarini ko'rsatadi. Va nihoyat, uchinchidan, aynan shu parchalarda Syun Szi o'zining falsafiy qarashlarining asosiy qoidalarini shakllantiradi (Titov, 2015: 38-39).

XULOSA

Insonparvarlik kategoriya konfutsiylik falsafasida eng muhim rol o'ynagan, umuminsoniy tamoyil bo'lib harakat qilgan va barcha eng munosib axloqiy qadriyatlarni to'plagan, ayni paytda uning mazmuni ma'lum bir faylasuf yoki butun bir maktab g'oyalariga qarab o'zgarib turardi. Konfutsiyning qarashlarini ochib beruvchi "Lun Yu" yodgorligida "insoniyat" boshqa muhim kategoriyalar, shu jumladan "marosim" (Li) bilan bog'liq degan xulosa beriladi. Konfutsiy an'anachilari nuqtayi nazaridan bu talqin, asosan, jamoat hayotini tartibga solish vositasidir deb tushunilgan (Scarpar, 2003: 6).

Neokonfutsiychilar Xan Yu ta'sirida Jen tushunchasining ontologik mazmunini kengaytirdilar. Cheng Xao, Chjan Zay, Van Yan Min va boshqalar buni Osmonning (tyan) atributi, shaxsning butun olam bilan organik konsubstansialligi sifatida talqin qilib, inson ruhida insonparvarlikning yo'qligini xuddi tananing jismoniy holatidagi falajga o'xshatishgan. Tan Sitong Jenni universal "sevgi kuchi", dunyo substansiyasining doimiy va hamma narsani qamrab oluvchi ko'rinishi - efir bilan aniqladi. Kang Yuvey bu nuqtayi nazarni qo'llab quvvatlaydi, jenni elektromagnit tortishish bilan bog'ladi. Klassik xitoy ta'limotlarini sharhlovchi XX asr faylasuflari asl konfutsiylikdagi jenni axloqiy meyorlar yoki o'z-o'zidan paydo bo'ladigan axloqiy intuitsiyaga ongli ravishda amal qilish, neokonfutsiychilikda esa "axloqiy metafizika" tamoyili sifatida talqin qiladilar (Kobzev, 2010: 31).

Insonlar o'rtasida o'zaro munosabatning boshlanishi xulq-atvorning umumiy tamoyilidir. Uning konkret tim-soli marosimlar (Li) hisoblanadi. Marosim, Konfutsiyning fikriga ko'ra, odamlarni bog'laydi, lekin har bir tipik munosabatlarga nisbatan u turli shaxslarning samarali muloqot qilishiga imkon beruvchi optimal masofani ko'rsatadi. Konfutsiy ta'limotida insonparvarlik tushunchasi o'zaro munosabat va tenglikda deb tavsiflanadi. Biroq insonlar tabiiy sifatleri va ijtimoiy mavqeyi bilan farqlanadi. Demak, o'rinli savol tug'iladi: teng bo'lmagan odamlar o'rtasidagi munosabatlarda tenglik tamoyilini qanday amalga oshirish kerak? Marosimlar - bu savolga javobdir. Konfutsiylikdagi marosimlar - shaxslarning ijtimoiy mutanosibligidir. Marosimlarning o'zi xulq-atvorning axloqiy o'lchovidir, chunki u odamlarning uyg'un mavjudligini ta'minlaydi, ularga umumiy belgilar beradi. Marosim o'zgaruvchan, lekin o'z asosida va o'z qonunlariga muvofiq o'tkaziladi. Konfutsiyning shunday so'zlari bor: "Hamma narsada marosim talablariga rioya qilish uchun o'zingizni tuting - bu insoniylikdir". Ya'ni agar "Jen"



insoniy muloqotning ruhi bo'lsa, "Li" aloqa mazmunidir (Lukyanov, 1992: 104).

Konfutsiyning fikricha, inson qadr-qimmatga ega noyob mavjudotdir. Inson qadr-qimmati "Li"dan kelib chiqqan va "Jen"da mujassamlashgan. O'zlashtirilgan odat, marosim odamni hayvonlardan ajratib turadi. Axloqiy tarbiya "Li" qoidalarini o'zlashtirish, adabiyot, musiqa va boshqa san'at turlarini o'rganishdan iborat. Konfutsiy aytdi: "Jen"ga ega bo'lish "Li" ga bo'ysunishni anglatadi (Drevnekitayskaya filosofiya, 1972: 86).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Титов, А.Л. (2015). Гуманность - жэн в философской системе Сюнь-цзы // Вестник Московского университета. Серия 7: Философия, Изд-во Моск. ун-та, № 4. –СС. 38-55.
2. Лукьянов, А.Е. (1992). Становление философии на Востоке: Древний Китай и Индия. – М.: Российский международный фонд культуры. – 188 с.
3. Торкумова, А.В. (2003). История Кореи (Новое прочтение) –М.: Московский государственный институт международных отношений (Университет); "Российская политическая энциклопедия" (РОССПЭН). – 430 с.
4. Троцевич, А.Ф. (2004). История корейской традиционной литературы (до XX в.): Учебное пособие – СПб.: С.-Петербург. унта. – 323 с.
5. Курбанов, С.О. (2009). История Кореи: с древности до начала XXI в. – СПб.: Изд-во С-Петерб. ун-та. – 744с.
6. Титаренко, М.Л. (2008). Духовная культура Китая. - М.: Восточная литература. – 566 с.
7. Кобзев, А.И. (2010). Новая философская энциклопедия. В четырех томах // Ин-т философии РАН. Вып. 5. – М.: Мысль. – 788 с.
8. Гриненко, Г.В. (2009). История философии: Учебник. –М.: Высшее образование. – 685 с.
9. Васильев, Л.С. (2006). Истоки китайской метафизики. Цзоу Ян // Васильев Л.С. Древний Китай: в 3 т. Т.3: Период Чжаньго (V—III вв. до н. э.). М.: Мысль. – 384-392 с.
10. Александров, Г.Ф. (1959). История социологических учений. – М.: Древний восток. – 371 с.
11. Сыма Цянь. (1986). Исторические записки. – М.: Восточная литература. – 482 с.
12. Древнекитайская философия: Собрание текстов. (1972). – М.: Мысль. – 363 с.
13. The Analects of Confucius (Translated by Burton Watson). (2007). – New York: Columbia University Press. – 176 p.
14. Cua, A.S. (1983). Li and Moral Justification: A Study in the Li Chi, Philosophy East and West. - Hawaii: University of Hawai'i Press, No. 1, Jan.– 1-16 p.
15. Schwartz, B.I. (1985). The World of Thought in Ancient China. -Massachusetts: Belknap Press of Harvard University Press. – 490 p.
16. Hunzi, (Basic Writings). (2003). Translated by Burton Watson. – New-York: Columbia University Press. – 160 p.
17. Sohn, Pook. (2000). Social History of the Early Chosŏn Dynasty: The Functional Aspects of Governmental Structure. – Seoul: Jisik-samup Publications Co. – 327 p.
18. Чон Чин Сок, Чон Сон Чхоль, Ким Чхан Вон, (1966). История корейской философии. - М.: Прогресс. – 181 с.
19. Этика и ритуал в традиционном Китае. (1988). - М.: Наука. – 331 с.
20. Китайская философия. Энциклопедический словарь. (1994). - М.: Мысль. – 573 с.
21. Духовная культура Китая: Энциклопедия. Т. 2. (2007). – М.: Восточная литература.. – 856 с.
22. Roger, T.A., Peter, D.H. (2017). Chun-chieh Huang. Confucianisms for a Changing World Cultural Order (Confucian Cultures). – Hawaii: University of Hawaii Press. – 284 p.
23. Титов, А.Л. (2015). Гуманность - жэн в философской системе Сюнь-цзы // Вестник Московского университета. – М.: Философия. – СС. 38-55.
24. Scarpari, M. (2003). The debate on human nature in Early Confucian Literature // Philosophy East and West, volume 53. Number 3, July. – 323-339 p.
25. Древнекитайская философия: Собрание текстов.(1972). – М.: Мысль. – 363 с.
26. Ruzmatova, G. (2019). Eastern melodies in the text of Plato. International Journal of Recent Technology and Engineering. 8(7).444-448.
27. Ruzmatova, G. (2020). Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nietzsche and Jalaliddin Rumi. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 24(4). 3215-3227.
28. Rakhimjanova, D.S. (2019). Features of the freedom issues in the Plot's philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology. 28(16). 1560-1564.
29. Ruzmatova, G.M. (2023). Comparative studies of the Oriental and Western antropology // ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (128), 191-195. Philadelphia, USA / Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-12-128-13>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.